



**15-16 APREL  
2022**

**TOSHKENT  
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR  
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI**

**“TADQIQOT.UZ”  
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:  
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**II  
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

**TO‘PLAMI**

**Toshkent - 2023**

**Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:**  
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Tahrir kengashi:**

g.f.d., professor Hikmatov F.H.  
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.  
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

**Kengash a'zolari:**

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.  
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.  
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.  
PhD, dotsent Prenov Sh.M.  
PhD, dotsent Raxmonov D.N.  
PhD, dotsent Raxmonov K.R.  
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

**Mas'ul muharrir:**

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

## HALQALI MUSICHANING (STREPTOPELIA DECAOCTO FRIV) SAMARQAND VILOYATIDAGI TARQALISHI

**Sariboyeva G.U.**

magistrant

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

**Fundukchiyev S.E.**

biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda kaptarsimonlar tez va keng ko‘lamda tarqalayotgan qushlardan hisoblanadi. Yer sharining anchagina qismini egallagan, ayniqsa, Yevropa va Osiyoda keng tarqalgan. O‘zbekiston hududida ham kaptarsimonlar ancha keng tarqalgan qushlardan hisoblanadi. Ular ichida ko‘k kaptar, kichik musicha va halqali musicha keng tarqalgan va bir muncha soni yuqori hisoblanadi. Hozirgi kunda halqali musicha O‘zbekiston hududining deyarli barcha viloyatlarida uchraydi. Ayniqsa, Samarqand viloyatida eng ko‘p tarqalgan qush hisoblanadi. Boshqa musicha turlariga nisbatan halqali musicha soni tez oshib bormoqda. Halqali musicha O‘zbekiston uchun yangi turlardan biri hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** halqali musicha, Samarqand viloyati, Streptopelia decaocto, sinantrop, o‘troq qush, polapon, sevka.

**Annotation.** Nowadays, pigeons is a type of a bird that is spreading vary fast and widely all over the world. This type of birds inhabits in many areas of the world, especially in Europe and Asia. Pigeons are also common in Uzbekistan including the species rock dove, laughing dove and collared dove which are the majority of them. These days, collared dove can be found in almost all regions of Uzbekistan, especially in Samarkand. The number of collared dove is increasing faster than other types of birds. Collared dove is a new species of the birds for Uzbekistan continent.

**Keywords:** collared dove, Samarkand region, Streptopelia decaocto, synanthropic, offspring, cefka.

Halqali musicha (Streptopelia decaocto) O‘zbekiston uchun nisbatan yangi tur. Keyingi yillarda halqali musicha haqida ko‘plab asarlar nashr etildi (Baqoyev, Salimov, 1990; Qidiraliyeva, 1990; Nazarov, 1990; Filatov, Lanovenko, 1990; Ametov, 1994; Fundukchiyev, 1995), lekin ularning aksariyati, asosan, uni respublikada tarqalish masalalariga bag‘ishlangan. O‘zbekistonda turning uyalash biologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqotlarimiz 2020–2021-yillarda Samarqand viloyatining Jomboy va Bulung‘ur tumanlari hududida olib borildi. Mintaqamizda halqali musicha – sinantrop



qushdir, shuning uchun uning uyalari aholi punktlari, bog‘lar va sabzavot bog‘lari bilan bog‘liq.

Hozirgi kunda kaptarsimonlar tez va keng ko‘lamda tarqalayotgan qushlardan hisoblanadi. Yer sharining anchagina qismini egallagan, ayniqsa, Yevropa va Osiyoda keng tarqalgan. O‘zbekiston hududida halqali musicha boshqa kaptarsimonlarga nisbatan ancha keng tarqalgan qush hisoblanadi. Samarqand viloyatining har bir tumanlarida uni juda ko‘p uchratishimiz mumkin. Kaptarsimonlar ekologiyasini o‘rganish ular bilan bog‘liq muammolar va ularning foydali jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Halqali musicha Bolqon yarimorolida, Kichik va Old Osiyoda yashagan va Eron, Hindiston, Birma, Xitoy, Koreya, Yaponiyagacha yetib borgan. Shimoliy chegarasi Afg‘oniston, janubi-sharqiy Turkmaniston, Qozog‘istonning janubi-sharqi, Toldiqo‘rg‘on viloyatining katta qismi, Panjobgacha bo‘lgan joylarni egallagan. U 1942-yilda Turkmanistonning Kushka shahrida uchratilgan va Murg‘ob va Taxta bozorgacha tarqalib borgan. Qozog‘istonda esa uning chegaralari turlicha o‘zgarib boradi. Sharqda Balxashgacha, shimoli-g‘arbda Bishkek shahrigacha bo‘lgan hududlarda tarqalgan [3, 546].

Asosiy, asl hudud Janubiy Osiyoda joylashgan bo‘lib, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Birma, Xitoy, Indoneziya, Koreyaning janubi va Yaponiyaning janubiy hududlarini, Suriya, Falastin, Mesopotamiya, Malaya Osiyoning janubiy yarmi. Hozirgi vaqtda u butun Yevropada (Ispaniya va Portugaliyadan tashqari) Skandinaviyaning shimoliy hududlarigacha – Shvetsiyada 60° shimoliy kenglikkacha, Norvegiyada markaziy mintaqalargacha yashagan.

Sharqiy Yevropa va Shimoliy Osiyoga ikki yo‘l bilan kirdi. Sharqda ko‘chirish Qashg‘ardan Ili daryosi vodiysiga olib borilgan va ko‘chirishga qushlarning olib kelinishi yordam bergan ko‘rinadi. 1930–1940-yillarda sharqiy chegara Qorabuloq, Sarkan aholi punkti orqali g‘arbda – Olmaota va Frunze, Chimkent va Toshkentga o‘tgan. Hozirga kelib, navbatdagi kuchli ekspansiya to‘lqini natijasida u barcha O‘rta Osiyo respublikalarida, Kushka shahri yaqinida, Murg‘ob va Tajan vodiylaridagi qishloqlarda uya qurgan. [5, 11].

Yuqoridagi tavsifga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, halqali musicha joylashish jarayonida birinchi navbatda yirik shaharlarda paydo bo‘ladi, so‘ngra asta-sekin kichikroq aholi punktlariga joylashadi, shundan so‘ng u kichik qishloqlarda tarqaladi. Uning yanada kengayishi O‘rta Osiyo, Kavkaz va janubiy Sibir vohalarida davom etadi, bu erda hamma joyda qulay sharoit mavjud. Samarqand shahrida birinchi marta 1983-yilda bir juft qush topildi. 1984-yilda bulvar va shahar xiyobonida uchratildi, 1985–1986-yillarda shahar xiyoboni hududida ularning soni sezilarli darajada qayd etildi. Ayni vaqtda ushbu qush keng tarqalgan qushlardan biri hisoblanadi. Shaharning barcha tumanlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan. Halqali

musicha soni juda tez ortib bormoqda. 1990, 1991, 1992 va 1993-yillarda kuz-qish mavsumida universitet hovlisida 58, 124, 162, 197 ta qush hisobga olindi.

Ushbu qush Samarqand viloyati hududida keng tarqalgan bo'lib, ilk bor Jomboy tumanida (10.04.1989), Juma shaharchasida (16.11.1992), Kattaqo'rg'onda (19.09.1993) va Oqtoshda esa (15.10.1996) da uchratilgan [8, 42]. Jizzaxda qayd etilgan qushlar soniga asoslanib, halqali musicha bu yerda 80-yillarning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan, chunki ularning soni 21.03.1990 da shahar ko'chalaridan birida 13 tadan yuqori bo'lib chiqdi va 1991-yil fevral oyida qushlar soni 27 taga teng edi. Jizzax viloyatining boshqa shahar va qishloqlarida ham topilgan: G'allaorolda (03.10.1990), Marjonbuloqda (02.05.1991), O'smatda (05.07.1990). Forish tumanining "Qizilqum" sovxozi hovlisida 1984-yilning iyul oyida A.S.Nuridjanov 2 ta qushni ko'rgan [6, 206].

Toshkent shahrining o'zida E.R.Fottelerningning so'zlariga ko'ra, halqali musicha 1980-yillarning oxirida shaharning turli qismlarida ko'rilgan. Respublikaning sharqida halqali musicha Farg'ona vodiylarining deyarli barcha aholi punktlarida, Chotqolda ham topilgan [4, 133].


Qarshida 1987-yil fevral oyida qarshi shahrining markaziy ko'chalarida bitta qush ko'rildi. 1988-yil bahor va yoz mavsumida 2 ta qush qayd etilgan, 1989-yilda deyarli 5-6, 1990–1993-yillarda esa qushlar soni 4 tadan 16 tagacha yetdi.

Nihoyat, 1988-yil martda Buxoro shahar parkida 4 ta halqali musicha ko'k kaptar galasi orasida uchratildi [2, 99]. Halqali musicha birinchi marta 1994-yil fevralda Doshan-ovul posyolkasida qayd etilgan. 16.06.1994 ertalab soat 7 larda Chimboydagi nonvoyxona yonida bir juft qush uchratilgan. Nukusdagi shahar shifoxonasining hovlisida bitta qush uchratilgan [1, 7].

Halqali musicha Surxondaryoda 1987-yilda aprel oyida qayd qilingan. D.Y. Kashkarovning ba'zi ma'lumotlariga ko'ra, 1985-yil avgust oyida, 1986-yil sentabr oylarida Toshkentda uchraganligi qayd qilingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, halqali musicha 1980-yillardan boshlab O'zbekistonda uchray boshlagan deb aytish mumkin. Hozirda bu qush bizning hududda o'troq qush hisoblanadi. Hozirgi kunda halqali musicha Samarqand viloyatining barcha tumanlarida keng tarqalgan.

## Halqali musichaning O‘zbekiston bo‘ylab tarqalishi



Yuqoridagi xarita halqali musichaning O‘zbekiston hududi bo‘ylab tarqalishini aks ettiradi. Unga ko‘ra, eng soni ko‘p tarqalgan hudud bu – Samarqand viloyati hisoblanadi. Buxoro va Qarshi shaharlarida ham keng tarqalgan qushlardan biri. Qolgan viloyatlarimizda halqali musicha soni 100 taga ham yetmaydi (1-rasm).

Bizning kuzatishlarimizga ko‘ra, hozirgi paytda halqali musicha Jomboy va Bulung‘ur tumanlarida keng tarqalgan o‘troq qush hisoblanadi. Halqali musicha kichik musicha singari keng ko‘lamda tarqalgan bo‘lib, faqat u, asosan, uyasini daraxtlarga quradi. Oddiy yashash joylari bu daraxtzorlar va turli aholi punktlari. Ular shahar shovqinidan umuman qo‘rqmaydilar.

Halqali musichani boshqa musichalardan g‘uv-g‘uvlashi bilan farqlash mumkin. Uning ovozi sassiqpopishakning qichqirig‘iga o‘xshatish mumkin, faqat mayinroq va jarangsiz, cho‘ziqroq bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Аметов М. Б. О нахождении кольчатой горлицы (*Streptopelia decaocto*) в низовьях Амударьи //Редкие и малоизученные птицы Средней Азии. Материалы 4 Республиканской орнитологической конференции. Ташкент, 1994. С. 6-7.
2. Бакаев С.Б., Салимов Х.В. Гнездование некоторых птиц в низовьях р. Зеравшан //Редкие и малоизученные птицы Средней Азии. Материалы 3 Республиканской орнитологической конференции. Ташкент, 1990. С. 99-101.
3. Дементьев Г.П. Птицы Туркменистана – Ашхабад: Изд-во АН ТССР, 1952.- 546с.
4. Кыдырадиева Р.А. Кольчатая горлица и майна в Киргизии //Редкие и малоизученные птицы Средней Азии. Материалы 3 Республиканской орнитологической конференции. Ташкент, 1990. С. 133-134.
5. Мекленбурцев Р.Н. Материалы по экологии и значению в сельском хозяйстве представителей отряда голубей (Columbae) в Уз ССР //Труды САГУ, вып. XII. Ташкент, 1950. С. 7-11.
6. Назаров А.Н. Кольчатая горлица //Птицы Узбекистана. Ташкент: Фан, 1990. Т.2. С. 206-209
- 7.Филатов А.К., Лановенко Е.Н. О расширении гнездового ареала кольчатой горлицы в Узбекистане //Редкие и малоизученные птицы Средней Азии. Материалы 3 Республиканской орнитологической конференции. Ташкент, 1990. С. 3.
- 8.Фундукчиев С.Э. Расселение кольчатой горлицы в Узбекистане // Актуальные проблемы биологии и медицины юго-западного Узбекистана. Самарканд,1996. Вып.1. С.42-44.